

Rasmiy munosabat

Kuni-kecha ijtimoiy tarmoq faoli Aliyeva Dilafuz Fazliddinovna (Dilya Atabayeva) viloyat hokimi qabuliga kirish masalasida amaliy yordam soʻrab murojaat qilgan.

Surxondaryo viloyatida jurnalist, blogerlar hamda ijtimoiy tarmoq faollari bilan yaqindan hamkorlikni yoʻlga qoʻyish, joylardagi muammolarni aniqlash, ularning yechimi boʻyicha tezkor choralar koʻrish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarda maxsus guruhlar tashkil etilgan. Shuningdek, tasdiqlangan reja asosida viloyat hokimining OAV vakillari va blogerlar bilan uchrashuvi tashkil etib kelinadi. Ushbu uchrashuvlarda D. Aliyeva ham ishtirok etgan.

Murojaatga asosan D. Aliyevaning muammolari tinglanib, avvalgi shu mazmunda qilgan murojaati Ichki ishlar organlari tomonidan tergov qilinayotgani, uning yakunlari boʻyicha toʻplangan materiallar sud tomonidan qonuniy koʻrib chiqilishi maʼlum qilindi.